

## Namangan viloyatida Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2026- yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### I. Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2026- yilning 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 23,0 mingtani tashkil etdi.

#### Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi<sup>1</sup>




<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20- apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash maqsadida Soliq qo'mitasi, Milliy statistika qo'mitasi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar bir xillashtirildi

Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

	2025- yil 1- aprel holatiga, birlik	2026- yil 1- aprel holatiga, birlik
Mingbuloq tumani	1106	1298
Kosonsoy tumani	1205	1285
Namangan tumani	1212	1330
Norin tumani	1058	1242
Pop tumani	1530	1651
To'raqo'rg'on tumani	1301	1434
Uychi tumani	1197	1306
Uchqo'rg'on tumani	1157	1399
Chortoq tumani	1326	1502
Chust tumani	1785	1967
Yangiqo'rg'on tumani	1126	1333
Namangan sh.	6567	7256

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni




## II. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2026- yilning yanvar-mart oylarida 1109 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2026- yilning yanvar- mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tashkil etilgan eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar soni savdo sohasida 447 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida 152 ta sanoat sohasida 147 ta, hamda 371 ta boshqa xizmatlar hissasiga to'g'ri keldi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni



2026- yilning yanvar- martda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar Namangan shahrida 318 ta, Mingbuloq tumanida 132 ta, Chust tumanida 96 ta, Chortoq tumanida 87 ta Uchqo'rg'on tumanida 86 ta, hamda Uychi tumanida 70 ta tashkil etilgan.

### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


Hudud	2025- yil yanvar-mart oylarida, birlik	2026-yil yanvar-mart oylarida, birlik
Mingbuloq tumani	86	132
Kosonsoy tumani	108	52
Namangan tumani	43	41
Norin tumani	63	48
Pop tumani	76	67
To'raqo'rg'on tumani	41	60
Uychi tumani	56	70
Uchqo'rg'on tumani	51	86
Chortoq tumani	74	87
Chust tumani	67	96
Yangiqo'rg'on tumani	55	52
Namangan sh.	268	318

### III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

#### Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi

2026- yilning yanvar-martda YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 68,0 % ni tashkil qilib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan 0,1 foizga kamaygan.

#### Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi




#### Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarish faoliyati

2026- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4 637,9 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 50,0 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 113,7 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Norin tumani (100,0 %), Yangiqo'rg'on tumani (100,0 %), Pop tumani (96,9 %) va Namangan tumani (76,9 %) hissasiga to'g'ri keldi.

#### Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi




### Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2026- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 2 792,1 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 92,9 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar- mart oylariga nisbatan 115,7 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Kosonsoy tumani (99,4 %) Norin tumani (99,2 %), Yangiqo'rg'on tumani (98,0 %), Chust tumani (97,6 %) va hissasiga to'g'ri keldi.

### Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




### Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2026- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 15 763,3 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 88,2 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar- mart oylariga nisbatan 152,3 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Yangiqo'rg'on ( 98,8 %), Pop tumani (97,5 %), Kosonsoy tumani (97,4 %), Chortoq t ( 95,8 %) va tumanlariga to'g'ri keldi.

### Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




### Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2026- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 3820,8 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 94,0 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 104,4 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulush Mingbuloq (98,8 %), Kosonsoy (98,8 %) Yangiqo'rg'on (98,7 %) Chust (98,6 %), Chortoq (98,6 %), To'raqo'rg'on (98,6 %), va tumanlariga to'g'ri keldi.

### Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




### Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2026- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 7050,2 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 92,5 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar- mart oylariga nisbatan 103,4 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Kosonsoy (78,9 %) Yangiqo'rg'on (78,9%) Uychi (78,8 %), va Uchqo'rg'on (78,2 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

#### Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi




#### Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2026- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 10 884,3 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 74,5 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar- mart oylariga nisbatan 113,5 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Yangiqo'rg'on (81,1 %), Namangan t (80,7 %), Mingbuloq (79,6 %), Kosonsoy (78,2 %) Norin (77,9 %), Uychqo'rg'on (77,8 %) va tumanlariga to'g'ri keldi.

#### Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




### Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2026- yilning yanvar- martda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 95,4 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 49,1 % ini tashkil etdi.

2026- yilning yanvar- martda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Namangan, Norin, Pop, Yangiqo'rg'on, tumanlarida – 100,0 % Uchqo'rg'on tumanida – 97,8 % va Mingbuloq tumanida – 93,9 %, ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




### Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2026- yilning yanvar- martda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 214,4 million AQSH dollarini yoki jami importning 76,6 % ini tashkil etdi.

2026- yilning yanvar- martda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Yangiqo'rg'on tumanida – 99,3 %, Norin tumanida – 98,0 %, Pop tumanida – 95,0 %, Mingbuloq tumanida – 95,9 % Namangan tumanida – 94,0 %, Pop tumanida – 94,0 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



#### IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2026- yilning yanvar-martda, avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 92,5 % ni tashkil etdi. 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,6 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-martda, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 92,6 % ni tashkil etgan bo'lib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,4 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-martda avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 98,4 % ni tashkil etib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,6,% ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-martda avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 96,5 % ni tashkil etib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,7 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi



#### V. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini 2026- yilning yanvar- martida **a'lo** deb baholagan korxonalar ulushi 10,0 %, **yaxshi** deb baholagan korxonalar ulushi 57,1 %, **o'rtacha** deb baholagan korxonalar ulushi 27,7 %, **yomon** deb baholagan korxonalar ulushi 5,2 % ni tashkil qilgan.

### Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar **yaxshilanish** deb baholagan korxonalar ulushi 36,4 %, **o'zgarishsiz** deb baholagan korxonalar ulushi 58,4 %, **yomonlashish** deb baholagan korxonalar ulushi 5,2 %, ni tashkil qilgan.

### Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini Keyingi chorak uchun o'zgarishlar istiqboli o'zgarishlar **yaxshilanish** deb baholagan korxonalar ulushi 45,8 %, o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar ulushi 51,8 %, yomonlashish deb baholagan korxonalar ulushi 2,4 %, ni tashkil qilgan.

### Umum iqtisodiy vaziyatining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida baholanishi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini Joriy davrda **a'lo** deb baholagan uqori ulushga ega sohalar sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish ulushi 13,0 %, sanoatda ulushi 12,7 %, axborot va aloqa ulushi 12,5 %, ni tashkil qilgan.

Joriy davrda **yaxshi** deb baholagan uqori ulushga ega sohalar axborot va aloqa ulushi 75,0 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish ulushi 65,2 %, yashash va ovqatlanish buyicha xizmatlar ulushi 64,5 %, ni tashkil qilgan.

Joriy davrda **o'rtacha** deb baholagan uqori ulushga ega sohalar tashish va saqlash ulushi 45,5 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi ulushi 38,2 %, sanoatda ulushi 29,8 %, ni tashkil qilgan.

Joriy davrda **yomon** deb baholagan uqori ulushga ega sohalar tashish va saqlash ulushi 12,1 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi ulushi 6,6 %, savdo ulushi 6,2 %, ni tashkil qilgan.

### Umum iqtisodiy vaziyatining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida baholanishi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar **yaxshilanish** deb baholagan uqori ulushga ega sohalar qurilish ulushi 45,0 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish ulushi 39,1 %, axborot va aloqa ulushi 37,5 %, ni tashkil qilgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar **o'zgarishsiz** deb baholagan uqori ulushga ega sohalar Yashash va ovqatlanish buyicha xizmatlar ulushi 66,7 %, Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi ulushi 65,9 %, Axborot va aloqa ulushi 62,5 %, ni tashkil qilgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar **yomonlashish** deb baholagan uqori ulushga ega sohalar yashash va ovqatlanish buyicha xizmatlar ulushi 66,7 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi ulushi 65,9 %, axborot va aloqa ulushi 62,5 %, ni tashkil qilgan.

#### Umum iqtisodiy vaziyatining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida baholanishi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini Keyingi chorak uchun o'zgarishlar istiqboli joriy davrdagi o'zgarishlar **yaxshilanish** deb baholagan uqori ulushga ega sohalar qurilish ulushi 55,0 %, axborot va aloqa ulushi 50,0 %, tashish va saqlash ulushi 48,5 %, ni tashkil qilgan.

Keyingi chorak uchun o'zgarishlar istiqboli joriy davrdagi o'zgarishlar **o'zgarishsiz** deb baholagan uqori ulushga ega sohalar yashash va ovqatlanish buyicha xizmatlar ulushi 58,1 %, sanoatda ulushi 57,1 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish ulushi 56,5 %, ni tashkil qilgan.

Keyingi chorak uchun o'zgarishlar istiqboli joriy davrdagi o'zgarishlar **yomonlashish** deb baholagan uqori ulushga ega sohalar qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi ulushi 4,4 %, tashish va saqlash ulushi 3,0 %, savdoda ulushi 2,8 %, ni tashkil qilgan.

## VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foйда) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.